

## **HARBIY KADRLAR TAYYORLASH TIZIMIDA AXBOROT RESURS MARKAZLARINING AHAMIYATI**

*Kimki mustaqillik yillarida O'zbekiston qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlarni ko'rmoqchi bo'lsa, avvalo odamlarning, xalqimizning yuziga, ko'ziga qarasin. Maktab, lisey va kollejlarda ta'lim tarbiya olayotgan bolalarning chehrasiga boqsin.*

*Islom Karimov*

**Asqarov Ulug'bek Jakparaliyevich  
Meliyev Farxod Fattoyevich**

### **SAMARQAND OLIY HARBIY AVTOMOBIL QO'MONDONLIK MUHANDISLIK BILIM YuRTI**

XXI asr axborot asri, elektronika asri desak yanglishmaymiz. Telekommunikatsiya tizimlarining bugungi kungi imkoniyatlari axborotlar oqimi yashin tezligida yer kurrasi bo'ylab tarqatayotgani so'zimiz isbotidir. Oliy harbiy ta'lim muassasasi o'quv-tarbiyaviy jarayoning samarali tashkillashtirishda axborotlarni, bilim olishga kerakli ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazishda Axborot-resurs markazlarini o'rni beqiyosdir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim muassasalari uchun o'quv adabiyotlari yaratish va o'quvchilar, talabalar, kursantlar, tinglovchilar va boshqalarga yetkazishning mustahkam tizimi yaratildi, bunda O'zbekistonda ta'lim berilayotgan yettita tilda darslik va o'quv qo'llanmalari nashr etilmoqda. Axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlarining moddiy-texnika bazasi yangilanib, zamonaviy elektron kutubxonalar tizimlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Axborot-kutubxona faoliyati - kitob boyliklari va boshqa axborot manbalaridan jamiyat a'zolarining foydalanishini tashkil etish maqsadida davlat, turli jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslar tomonidan tashkil etilgan kutubxonalar tizimi bo'lib, ular o'zida jamiyatimizda, axborot, madaniy-ma'rifiy va ta'lim berish vazifalarini bajaruvchi soha hisoblanadi.

Markaziy Osiyo mintaqasida dastlabki kutubxonalar IV-VI asrlarda paydo bo'lgan. Markaziy Osiyo mintaqasida kutubxonalarning rivojlanishiga VIII asrdan boshlab Samarqandda yuqori sifatli qog'oz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu davrlarda Sharqning buyuk allomalari Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy va boshqalar faoliyat yuritganlar.

#### **Axborot-kutubxona muassasalarining turlari va tuzilishi**

Axborot-kutubxona tizimi yagona tashkiliy va uslubiy ta'minot asosida faoliyat ko'rsatuvchi axborot-kutubxona muassasalari majmuidir. Axborot-kutubxona muassasasi



mustaqil muassasa bo'lishi yoxud korxonaga, muassasa yoki tashkilotning tarkibiy bo'linishi bo'lishi mumkin.

Axborot-kutubxonaga muassasalariga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Milliy kutubxonasi;

axborot-kutubxonaga markazlari;

axborot-resurs markazlari;

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining kutubxonalari;

boshqa kutubxonalar (fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining, tijorat tashkilotlarining kutubxonalari).

Axborot-kutubxonaga muassasalari axborot-kutubxonaga fondlarining mazmuni va belgilangan maqsadiga ko'ra universal hamda maxsus axborot-kutubxonaga muassasalariga bo'linadi.

### **Axborot-resurs markazlari**



Axborot-resurs markazlari davlat ta'lim muassasalari huzurida tashkil etilgan, o'quvchi yoshlarning, shuningdek aholining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan axborot-kutubxonaga faoliyatini amalga oshiruvchi universal axborot-kutubxonaga muassasalaridir.

Axborot-resurs markazlari:

ta'lim muassasasining ixtisoslashuviga muvofiq asosan o'quv-tarbiyaviy yo'nalishga oid axborot-kutubxonaga fondini shakllantiradi va uning saqlanishini ta'minlaydi;

elektron kutubxonaga va elektron katalogni shakllantiradi;

shaxsning ma'naviy yuksak va barkamol ijodiy o'sishi uchun imkoniyatlar yaratgan holda o'zidagi va o'zidan uzoqdagi axborot-kutubxonaga resurslaridan foydalanish asosida O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosidan foydalanuvchilarni bahramand etadi;

axborot-kutubxonaga resurslaridan o'zaro foydalanishni ta'minlaydi;

boshqa axborot-kutubxonaga muassasalari bilan hamkorlikni amalga oshiradi; yig'ma elektron katalogni shakllantirishda ishtirok etadi;

madaniy, ta'lim, axborot dasturlari va loyihalarni hamda boshqa dasturlar va loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ta'lim, ilmiy muassasalar va arxivlar, mahalliy davlat hokimiyati organlari, milliy-madaniyat markazlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantiradi.

### **Elektron kitoblar**



Insoniyat o'z umri davomida imkon qadar ko'p axborotlarni kichik hajmga joylashga harakat qilgan. Avval papirusga yozilgan kitoblar paydo bo'ldi, so'ngra pergamentdan foydalanildi. Keyinchalik kitob bosish davri keldi. Bugun biz kitoblarning eng so'nggi avlodi - elektron kitoblar to'g'risida gapirmoqdamiz.

Elektron kitob yaratish g'oyasi ko'p vaqtdan beri mutaxassislarni qiziqtirib kelgan. Elektron kitob yaratish tarixi 1945 yildan boshlanadi. Bu paytda futurist Vanavar Bush tomonidan kitoblarni, yozuvlarni va xabarlarni saqlash, ishlov berish, uzatish imkonini beruvchi xususiy qurilmalar yaratish haqida fikrlar bildirilgan edi.



Hozirgi kunda harbiy ta'lim muassasalarida ham boshqa ta'lim muassasalari singari ta'lim portali bo'lgan Ziyonet, ARMLardan foydalanilmoqda. Bu albatta harbiy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiyaviy jarayoni sifatli tashkillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga bu jarayonni yanada takomillashtirish kursant va tinglovchilarning nafaqat o'quv, balkim ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy materiallar bilan ta'minlanishini boyitish maqsadida Qurolli Kuchlar tarkibidagi boshqa vazirliklar ta'lim muassasalarida joriy etilgan (masalan, IIV akademiyasi) "elektron kitob" tizimini tashkillashtirish taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari, harbiy qism va birlashmalari o'rtasida korporativ tarmoqni yo'lga qo'yish, tarmoq xavfsizligini dasturiy va texnik ta'minlash, Oliy harbiy ta'lim muassasalarida lokal tarmoq tizimini tashkil etish va takomillashtirish, tizimda axborot resurs markazlarni (ARM) adabiyotlar, o'quv uslubiy qo'llanmalar bilan boyitish va ulardan foydalanishni tashkillashtirish, axborot resurs markazlari xodimlarini bilim va ko'nikmalarini oshirish asosida har tomonlama yetuk, ma'naviy barkamol va yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratib beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Fundamentals of Library and Informational science", by ABDUWAHAB OLANREWAJU ISSA, Ph.D in 2013.
2. [http://en.wikipedia.org/wiki/Library\\_science](http://en.wikipedia.org/wiki/Library_science).
3. <http://WWW.rocket-library.com/>.
4. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi, 2017 yil 12 yanvar.